




SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Samarqand viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

2017 yil yanvar–sentyabrda 2,7 mingdan ortiq kichik biznes (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) sub'yektlari tashkil etildi yoki 2016 yilning shu davriga nisbatan 153,5 foizga ko'paydi. Mazkur kichik biznes sub'yektlarining eng ko'p qismi sanoat tarmog'ida (28,0%), savdo sohasida (20,5%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (13,7%) va qurilishda tarmog'ida (9,7%) tashkil etilgan.

2017 yil yanvar–sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



2017 yilning yanvar–sentyabrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan:

– sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4167,5 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 58,5 foizi) yoki 2016 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o'sish sur'ati 113,1 foizni tashkil etdi;



– 1357,5 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 57,3 foizi) o`zlashtirildi yoki 2016 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan 62,5 foizni tashkil etdi;



– 1627,4mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 93,9 foizi) bajarildi yoki 2016 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`shish sur`ati 95,3 foizni tashkil etdi;



– 3520,0 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (jami xizmatlar hajmining 72,4 foizi), 2016 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan 100,4 foizni tashkil etdi;



– chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmining 94,0 foizi yoki 6131,1 mlrd. so`mi (o`shish sur`ati 103,9 foiz) shakllantirildi;

– 152,6 mln. AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 84,2 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksporti amalga oshirildi, bu esa 2016 yilga nisbatan 111,3 foizni tashkil etdi;



– avtomobil transporti yuk aylanmasining 110,2 foizga (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 96,4 foizi);

– yo`lovchi aylanmasining esa 114,5 foizga (umumiy yo`lovchi aylanmasining 92,5 foizi) ko`payishi ta`minlandi;



– 1284,1 ming nafar kishining bandligi ta`minlandi (jami iqtisodiyotda band bo`lganlarning 84,2 foizi) (o`rish sur`ati 100,2 foiz);

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi eksportda – 84,2 foizni (2016 yilning yanvar–sentyabda 82,5 foiz), sanoatda – 58,5 foizni (61,1 foiz), xizmatlarda – 72,4 foizni (74,4 foiz), qurilishda – 93,9 foizni (95,3 foiz) va bandlikda – 84,2 foizni (84,2 foiz) tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmga nisbatan foizda)

